



**New Day in Medicine**  
**Новый День в Медицине**

**NDM**



# TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



**AVICENNA-MED.UZ**



ISSN 2181-712X.  
EiSSN 2181-2187

**5 (67) 2024**

**Сопредседатели редакционной коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,  
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ  
А.А. АБДУМАЖИДОВ  
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ  
Л.М. АБДУЛЛАЕВА  
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ  
М.А. АБДУЛЛАЕВА  
Х.А. АБДУМАЖИДОВ  
Б.З. АБДУСАМАТОВ  
М.М. АКБАРОВ  
Х.А. АКИЛОВ  
М.М. АЛИЕВ  
С.Ж. АМИНОВ  
Ш.Э. АМОНОВ  
Ш.М. АХМЕДОВ  
Ю.М. АХМЕДОВ  
С.М. АХМЕДОВА  
Т.А. АСКАРОВ  
М.А. АРТИКОВА  
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)  
Е.А. БЕРДИЕВ  
Б.Т. БУЗРУКОВ  
Р.К. ДАДАБАЕВА  
М.Н. ДАМИНОВА  
К.А. ДЕХКОНОВ  
Э.С. ДЖУМАБАЕВ  
А.А. ДЖАЛИЛОВ  
Н.Н. ЗОЛотова  
А.Ш. ИНОЯТОВ  
С. ИНДАМИНОВ  
А.И. ИСКАНДАРОВ  
А.С. ИЛЬЯСОВ  
Э.Э. КОБИЛОВ  
А.М. МАННАНОВ  
Д.М. МУСАЕВА  
Т.С. МУСАЕВ  
М.Р. МИРЗОЕВА  
Ф.Г. НАЗИРОВ  
Н.А. НУРАЛИЕВА  
Ф.С. ОРИПОВ  
Б.Т. РАХИМОВ  
Х.А. РАСУЛОВ  
Ш.И. РУЗИЕВ  
С.А. РУЗИБОВЕВ  
С.А.ГАФФОРОВ  
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)  
Ж.Б. САТТАРОВ  
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)  
И.А. САТИВАЛДИЕВА  
Ш.Т. САЛИМОВ  
Д.И. ТУКСАНОВА  
М.М. ТАДЖИЕВ  
А.Ж. ХАМРАЕВ  
Д.А. ХАСАНОВА  
А.М. ШАМСИЕВ  
А.К. ШАДМАНОВ  
Н.Ж. ЭРМАТОВ  
Б.Б. ЕРГАШЕВ  
Н.Ш. ЕРГАШЕВ  
И.Р. ЮЛДАШЕВ  
Д.Х. ЮЛДАШЕВА  
А.С. ЮСУПОВ  
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ  
М.Ш. ХАКИМОВ  
Д.О. ИВАНОВ (Россия)  
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)  
DONG JINCHENG (Китай)  
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)  
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)  
В.А. МИТИШ (Россия)  
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)  
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)  
А.А. ПОТАПОВ (Россия)  
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)  
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)  
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)  
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)  
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН  
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ  
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал  
Научно-реферативный,  
духовно-просветительский журнал*

**УЧРЕДИТЕЛИ:**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ  
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский  
исследовательский центр хирургии имени  
А.В. Вишневского является генеральным  
научно-практическим  
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных  
изданий, рецензируемых Высшей  
Аттестационной Комиссией  
Республики Узбекистан  
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

**РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:**

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)  
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)  
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)  
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)  
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)  
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)  
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)  
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)  
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)  
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)  
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

**5 (67)**

**2024**

*Май*

[www.bsmi.uz](http://www.bsmi.uz)

<https://newdaymedicine.com> E:

[ndmuz@mail.ru](mailto:ndmuz@mail.ru)

Тел: +99890 8061882

Received: 20.04.2024, Accepted: 02.05.2024, Published: 10.05.2024

UDK 613.67:341.321.32: 613.953-084

**HARBIY XIZMATCHILARNING SALOMATLIK HOLATIGA TA'SIR ETUVCHI  
OMILLAR VA ULARNING PROFILAKTIKASI MASALALARIGA ZAMONAVIY  
YONDASHUV**

Qutliyev Jamshid Amonbayevich <https://orcid.org/0009-0001-5053-1956>

Xalimov Bobokalon Haydarqulovich <https://orcid.org/0009-0001-6782-6355>

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston, 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Ziyolilar ko'chasi 4- uy tel: +998555060265, e-mail: [qkhta-4870@umail.uz](mailto:qkhta-4870@umail.uz)

✓ **Rezyume**

*Maqolada dunyoning rivojlangan davlatlari armiyalari tibbiy ta'minot xizmati tomonidan harbiy xizmatchilarning sog'ligini saqlash, ularning salomatligiga ta'sir qiluvchi omillar va ushbu omillarni profiktika qilish yo'llari bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar tahlil qilingan hamda olingan xulosalar batafsil bayon qilingan.*

*Kalit so'zlar: harbiy xizmat, tashqi omillar, harbiy tibbiyot, profilaktik tibbiyot.*

**A MODERN APPROACH TO THE PROBLEM OF FACTORS AFFECTING THE  
HEALTH STATE OF MILITARY SERVICEMEN AND WAYS FOR THEIR PREVENTION**

Jamshid A Kutliev <https://orcid.org/0009-0001-5053-1956>

Bobokalon KH Xalimov <https://orcid.org/0009-0001-6782-6355>

✓ **Resume**

*The article analyzes the activities carried out by the medical support services of the armies of developed countries to maintain the health of military personnel, the factors influencing their health and ways to prevent these factors.*

*Key words: military service, external factors, military medicine, preventive medicine.*

**СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К ПРОБЛЕМЕ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА  
СОСТОЯНИЕ ЗДОРОВЬЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ И ПУТИ ИХ ПРОФИЛАКТИКИ**

Кутлиев Жамшид Амонбайевич <https://orcid.org/0009-0001-5053-1956>

Халимов Бобокалон Хайдаркулович <https://orcid.org/0009-0001-6782-6355>

Военно-медицинская академия Вооруженных Сил Республики Узбекистан, Узбекистан, 100170, г.Ташкент, Мирзо Улугбекский район, ул.Зиёлилар-4, тел: +998555060265, e-mail: [qkhta-4870@umail.uz](mailto:qkhta-4870@umail.uz)

✓ **Резюме**

*В статье проанализирована деятельность, проводимая службами медицинского обеспечения армий развитых стран мира по поддержанию здоровья военнослужащих, факторы, влияющие на их здоровье и пути предотвращения этих факторов.*

*Ключевые слова: военная служба, внешние факторы, военная медицина, профилактическая медицина.*

**Dolzarbligi**

Harbiy xizmatchilar tibbiy ta'minotini tashkillashtirish yurtimiz aholi sog'lig'ini saqlash tizimining tarkibiy qismi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi harbiy tibbiyotining asosiy faoliyat yo'nalishidir. Yurtimizda aholi sog'lig'ini saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlarga mos ravishda Respublika sog'liqni saqlash tizimining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadigan Qurolli Kuchlar tibbiy ta'minotida

ham shaxsiy tarkibning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash yo'nalishida uzluksiz takomillashtirish ishlari davom etmoqda. Harbiy xizmat sharoitlaridan kelib chiqib, ularning tibbiy ta'minotini tashkillashtirish uchun alohida bo'linmalar ko'zda tutilgan bo'lib ularning vazifasi harbiy mehnat sharoitlariga asoslanib (qo'shin turi, jangovar vazifalarning o'ziga xosligi, klimatogeografik sharoit va h.) belgilanadi.

Harbiy xizmatchilar sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va tiklash, profilaktik hamda davolash-diagnostik ishlarni o'tkazish bo'yicha vazifalar QK tibbiyot xizmatining barcha bo'g'inlarida bajariladi. Shuningdek o'tkazilayotgan ishlarning samaradorligi qo'shinlar tibbiyot xizmatining, xususan harbiy qism tibbiy rotasi va tibbiyot punktining faoliyati bilan bog'liq [8].

Birlamchi bo'g'in tibbiyot xizmatining faoliyatiga chet el armiyalarida ham alohida e'tibor bilan qarashadi. Bundesverning (Germaniya) barcha harbiy xizmatchilarning ambulator va statsionar davolash, dori-darmonlar bilan ta'minlash, murakkab tibbiy texnikalardan foydalanadigan va unga xizmat ko'rsatish vazifasi yuklatilgan tibbiyot xizmati yaxshi tayyorgarlikka ega shaxsiy tarkibga muhtoj [8,3].

Polsha Qurolli Kuchlarining faol kontingenti soni 120 ming kishini tashkil etadi. Tibbiyot xizmati Markaziy apparat va qo'shinlar xizmatlaridan tashkil topgan. Harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari va veteranlarni ambulator va statsionar davolashni tashkil etish uchun Polsha MV tibbiyot xizmati statsionar va ambulator muassasalar tarmoqlari (Harbiy tibbiyot instituti, harbiy klinik gospitallar, tibbiy reabilitatsiya (tiklash) markazlari, sanatoriya) shakllantirilgan [4].

AQSH QK tibbiy ta'minotining tashkil etishga javob beradigan eng yuqori mansabdor shaxs - bu Mudofaa vazirining yordamchisi hisoblanadi. Tibbiyot xizmatining shaxsiy tarkibi soni 132 ming (80 ming harbiy xizmatchisi, 52 ming fuqaro toifasidagi). AQSH Mudofaa vazirligi tasarrufida 59 ta gospital, 663 tibbiyot va stomatologik klinika, 258 ta veterinar klinikalari, 26 ta ilmiy tadqiqot obyekti, 19 o'quv markazi va 10 ta tibbiy komplekslar mavjud. Harbiy tibbiyot xizmatini ishini tashkillashtirishga 35 ming fuqaro tashkilotlari va firmalari, 55 ming farmatsevtika muassasalari, 70 mingdan ortiq stomatologik kabinetlar va klinikalar yordam beradi [12,15].

<b>Harbiy xizmatning noqulay sharoitlari</b>	<b>Kasallik rivojlanish patogenezining ayrim aspektlari</b>	<b>Profilaktika choralari</b>
Tabiiy: -sovuq -atmosfera bosimining o'zgarib turishi -atrof-muhitning haroratini o'zgarib turishi	Sovuq qotish perinevriya arterioalarining srazmi va kapillardagi spazmga hamda qon tomirlari o'tkazuvchanligining buzilishiga olib keladi.	Ob-havoga mos kiyinish, sovuq havoda uzoq vaqt tashqarida qolib ketishni oldini olish.
Texnik: -vibratsiya o'ta yuqori elektromagnit nurlanish -ionlovchi nurlanish -og'ir metallar, organik moddalar	Vibratsiya MAS qon tomirlari tonusini boshqarilishini va nervlar trofikasining buzilishiga sabab bo'ladigan retseptorlarning yuqori qo'zg'aluvchanligiga olib keladi.	Noqulay omillarni ta'sirini bartaraf qilish, mehnat va dam olish rejimiga rioya qilish.
Ijtimoiy-turmush: -surunkali stress -ruhiy zo'riqish -yopiq kollektiv	Stress (ekstremal omillar) ta'sirida organizmda mediatorlar va immun jarayonning buzilishi, to'qima jarayonida energiya hosil bo'lishi va sarflanishining o'zgarishi yuzaga keladi.	Psixolog bilan ishlash, shaxsiy tarkibni komandirlar tomonidan nazorat qilish.
Ovqatlanish: -B guruhi vitaminlari yetishmovchiligi	B guruhi vitaminlari turli biokimyoviy jarayonlarda ishtirok etuvchi koferment bo'lib, nerv hujayralari energetikasini yaxshilashda, ko'pgina neyromediatorlar biosintezida muhim rol o'ynaydi.	To'g'ri va rainal ovqatlanishni tashkil etish.
Jismoniy: -EHM da uzoq vaqt ishlash (operatorlarda) -gipodinamiya -travmatizm	Tana, oyoq va qo'llarning setsifik holati, doimiy bir xildagi harakatlar nerv tolalarining tabiiy tunnellarda qisilishiga, mikrotravmatizatsiyasiga va ishemiyasiga olib keladi.	Ertalabki badantarbiya, mehnat va dam olish rejimiga rioya qilish.

### **Harbiy mehnatning harbiy xizmatchilar sog'lig'iga ta'sir etuvchi spetsifik omillari.**

Harbiy xizmat sharoitlarining shaxsiy tarkib sog'lig'iga ta'siri boshqa sohadagiga o'xshash bo'lishiga qaramay, harbiy xizmatchilarning kundalik faoliyati va jangovar tayyorgarlik jarayonining spetsifik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Umumlashtirib keltiradigan bo'lsak, harbiy mehnat sharoitlarining harbiy xizmatchilar sog'lig'iga ta'siri bir qator omillar bilan tavsiflanadi. Bular qatoriga, iqlim sharoitlari, geografik joylashuv, xizmat o'tash spetsifikasini (qo'shin turi, jangovar tayyorgarlik intensivligi, harbiy xizmatchining egallagan lavozimi, ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi) sanab o'tish mumkin.

I.V. Litvinenko va boshqa bir qator izlanuvchilar tomonidan harbiy xizmat omillarining asab tizimiga ta'siri va uning profilaktika choralarini belgilash bo'yicha ro'yxati [11] ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu ro'yxat orqali ta'sirlovchi omillarning ko'p omilli ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Harbiy xizmatchilarning salomatlik holati mamlakatning iqtisodiy va siyosiy holati, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarlik (harbiy mehnat) sharoitlari, xizmat o'tashning geografik joylashgan joy sharoiti (iqlimi, ekologik vaziyati) va boshqa bir qancha omillarga bog'liq.

Harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi shaxsiy tarkibning jangovar vazifalarni bajarishda talab qilinadigan amaliy ko'nikmalarini va chidamlilikni oshirishga qaratilgan bir qancha yo'nalishlarda olib boriladi. Jumladan, jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy yuklamalarga chidamliligini oshirishi bilan birga, organizmning adaptiv qobiliyatlari va kasallikka chidamliligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligiga noto'g'ri (uslubiy, tashkiliy va b.) yondashuvlar natijasida ushbu tayyorgarlik turining o'zi shaxsiy tarkib sog'lig'iga salbiy ta'sir etishini kuzatish mumkin. Jismoniy tayyorgarlikning shaxsiy tarkib sog'lig'iga ta'sirini o'rganish bo'yicha 2010 yil Y.N. Trunov, V.N. Bolexan tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar yakunida jismoniy tayyorgarlik davomida jismoniy yuklamalar hajmining ikki baravar (haftasiga 12 soat o'rniga 25 soat) oshirilishi natijasida muddatli harbiy xizmatchilar orasida gospitalizatsiya ko'rsatkichlarining 12% gacha (nafas a'zolari kasalliklari - 27,9-34,9%) ko'payganligi aniqlanadi [20].

Muddatli harbiy xizmatchilarning maxsus tayyorgarligi jarayoni davomida odam tayanch-harakati a'zolari tizimining turli elementlariga turli chastotadagi, intensivlikdagi va kuchdagi mexanik yuklamalar doimiy ta'sir etib turadi. Harbiy xizmatchilar va sportchilarga xos bunday uzoq muddatli va zarbdor yuklamalar suyaklar va bo'g'inlar shakllanishining buzilishiga va hatto kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi. Oyoq va qo'llarning harakat reaksiyalarining buzilishi ijtimoiy adaptatsiya mexanizmi, fiziologik funksiyalarning buzilishiga olib keladi va jarayonlarni dekompensatsiya qilish evaziga bir qancha kasalliklarning kechishiga, hatto hayot sifatiga hamda hayot davomiyligiga ta'sir ko'rsatadi [14]. Alohida harbiy xizmatchilarda, ayniqsa yetarlicha tayyorgarlikka ega bo'lmagan harbiy xizmatchilarda, suyaklarning zararlanishi funksional zo'riqishlardan keyin, odatda, uzoq masofalarga marsh qilishdan va baland-pastliklar va qattiq qoplamali yo'laklarda kross yugurishdan keyin yuzaga keladi [19].

Travmatizm - odamlar kagortasida ma'lum muddat davomidagi jarohatlanish va ularning oqabatlari ko'rsatkichidir. Harbiy xizmatchilar travmatizm darajasi - kasbiy faoliyat xavfsizligining asosiy ko'rsatkichidir [20].

Iqlim sharoitlarini tahlili ob-havo shaxsiy tarkib sog'lig'iga, shuningdek jangovar qobiliyatiga sezilarli ta'sir qilishini, kasalliklar (sovuq qotish, oftobdan kuyish, issiq urishi, yorug'lik oftalmiyasi, burundan qon ketish, trofik buzilishlar, ko'z, teri va shilliq qavatlarining yallig'lanishi) paydo bo'lishiga sababchisi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi [5].

Yashashning klimatogeografik hududini o'zgarishida organizmning regulyator sistemasida atrof muhitning o'zgargan sharoitlarida adekvat hayot jarayonlarini ta'minlashga qaratilgan adaptiv qayta o'zgarishlar yuzaga keladi [10, 16].

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, harbiy xizmat o'zining murakkabligi va xavfliligi jihatida inson faoliyatining eng stressogen turlaridan biri hisoblandi [16]. Stressogen holatlar bilan bog'liq bo'lgan xizmatning boshlang'ich bosqichlarida organizmning zo'riqishi harbiy xizmatchilar organizmining rezistentligiga ta'siri umumiy kasallanish va mehnatga vaqtinchalik layoqatsizlik ko'rsatkichlarining ko'tarilishi va keyingi moslashishdan keyin pasayishi bilan namoyon bo'ladi [12,30].

Salomatlik holatiga negativ ta'sir etuvchi harbiy mehnatning quyidagi omillari farqlanadi:

1. Fizik: barometrik bosimning o'ynab turishi, atmosfera va kislorodning parsial bosimining pasayishi, mexanik tebranishlar va tezlanishlar, shovqin va vibratsiya, atrof-muhitning past harorati va

uning keskin o'zgarib turishi, ionlanuvchi va elektromagnit nurlanishlar, ultrabinafsha nurlanishning pastligi (yo'qligi).

2. Kimyoviy: sun'iy gazli muhit, dvigatellar ishlab chiqarilgan gazlar kondensatlari, raketa yoqilg'isi komponentlari, yuqori toksik moddalar, kimyoviy qurollarga taalluqli toksik ximikatlilar.

3. Biologik: I va II guruh patogenli mikroorganizmlar bilan ishlash.

4. Ijtimoiy-ruhiy: yuqori asab-ruhiy zo'riqish (surunkali va o'tkir stress), nisbiy sensor va ijtimoiy deprivatsiyali izolyatsiya, gipodinamiya va gipokineziya, sutkalik biologik siklning buzilishi (uyqu va hushyorlik rejimining buzilishi) [9].

Harbiy xizmat muddatining o'zgarishi, jismoniy va jangovar tayyorgarlikning jadallashuvi, harbiy mehnat sharoitining xususiyatlarini o'zgarishi kabi omillar harbiy xizmatchilarning sog'lig'i holatiga va shaxsiy tarkibning jangovarlik qobiliyatiga har tomonlama ta'sir etadi [2] hamda muddatli harbiy xizmat muddatini 12 oygacha qisqartirilishi harbiy xizmatchilar ruhiy salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, jumladan ruhiy buzilishlar orqali harbiy xizmatdan bo'shatilishi ko'rsatkichida pasayish tendensiyasi aniqlanib, oldingilarga nisbatan 3,5 baravarga kamayishi aniqlanadi [22,29].

Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyati ko'pincha ekstremal sharoitlarda o'tadiki, ular organizmning funksional rezervining izdan chiqishiga va psixogen buzilishlarga sabab bo'lishi mumkin [1,6] va organizmning ichki va tashqi stimullarga hamda kasbiy omillarga mos kelmaslik reaksiyasi ekstremal kasb egalari, birinchi navbatda harbiy xizmatchilarga xos "kasbiy stress" deb baholanadi. Ushbu toifadagilarga ko'p uchraydigan ruhiy buzilishlardan biri - bu posttravmatik stress buzilishlaridir. Korreksiya qilinmasa spetsifik psixofiziologik o'zgarishlarga, hatto somatik patologiyaga olib keluvchi vegetativ regulyatsiya tizimining turli xil buzilishlari posttravmatik stress buzilishlarga xosdir. Tadqiqot natijalariga ko'ra jangovar harakatlar qatnashchilarining 30 % da posttravmatik stress buzilishlar yuzaga keladi [23,28].

Buyuk Britaniyaning Iroq va Afg'onistonda xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilar salomatlik holatini tekshirishda doimiy jangovar vazifalarni bajaruvchi shaxsiy tarkib orasida yordamchi vazifalarni bajaruvchilarga nisbatan posttravmatik ruhiy buzilishlar holatlar tarqalishining ko'pligi aniqlanadi [13].

Harbiy xizmat sharoitining noqulay omillari ta'siri, jismoniy va emotsional yuklamalar harbiy xizmatchilarda ruhiy buzilishlar kelib chiqish xavfini oshirishi bilan birga nafaqat diagnostik ishlar sifatini oshirishni, balki profilaktik yo'nalishdagi tashkiliy ishlarni doimiy takomillashtirishni talab etadi [21,26,27] va kasbiy faoliyatning spetsifik sharoitlari har xil qo'shin turlarida xizmat qilayotgan ayol harbiy xizmatchilarning kasallanishi ko'rsatkichlari darajasi va strukturasini aniqlab berdi. Kosmik qo'shinlardagi sensor va sensomotor profildagi operator ayol harbiy xizmatchilarda ko'rish analizatorlarining yuklamalari katta bo'lib, ko'z va uning yordamchi apparatlari kasalliklari QK bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan 2,9 baravar yuqori. Bundan tashqari, ushbu toifadagi ayol harbiy xizmatchilarda suyak-mushak tizimi kasalliklari (1,8 baravar), jarohatlanish va zaharlanishlar bo'yicha (1,8 baravar) kasallanish darajasining kattaligi ularning xizmat sharoitlarida sog'lig'iga negativ ta'sir etuvchi omillarning mavjudligini isbotlaydi [18].

Qo'shinlar shaxsiy tarkibining salomatlik holatining o'zgarish tendensiyasi yuqorida ko'rsatilgan omillardan tashqari mamlakat aholisining salomatlik holatiga ham bog'liqdir. Bir qator mualliflar fikriga ko'ra, aholi kasallanishini ko'rsatkichlarning oshishi barcha nazologiyalar bo'yicha, ayniqsa yurak-qon-tomir va onkologik kasalliklar bo'yicha, jarohatlanish, ko'ngilsiz hodisalar va zaharlanishlar bo'yicha oshishi kuzatiladi. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holatning yomonlashuviga bog'liq bo'lgan aholi salomatlik holatining bunday o'zgarishlar tendensiyasi harbiy xizmatchilar sog'lig'iga ham salbiy o'z aksini topadi [18,24,25].

Yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarning asosiy sabablari sifatida harbiy mehnat va turmush sharoitlarining noqulay ta'sirlari, boshqa negativ ijtimoiy va psixologik omillar deb qabul qilingan. Ko'rsatilgan nozologiyalar bo'yicha kasallanishlar tahlili ularning oshish tendensiyasiga ega ekanligini va ko'proq muddatli harbiy xizmatchilarda namoyon bo'lishini ko'rsatmoqda [9].

### Xulosa

Yuqorida o'rganilgan ilmiy manbalarning taxlili natijasiga asosan, harbiy xizmatchilar sog'lig'iga har qanday tashqi muxit omillarining bevosita yoki bilvosita ta'siri bor deb xulosa qilinishi mumkin. Profilaktik tibbiyot rivojlangan davlatlar armiyalari tibbiyot xizmatining asosiy bo'limlaridan xisoblanadi hamda keng qamrovli vazifalarni amalga oshiradi va shu sababdan ham Jahon tajribalarini

doimiy o'rganib, tahlil qilib borishni va ijobiy jihatlarini Qurolli Kuchlarimiz tibbiyot xizmatiga tadbiiq qilishni maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.

#### ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Алиев У.С. Индивидуально-психологические характеристики представителей высшего командного состава – участников боевых действий //Вектор науки Толятинского гос. унта. Сер. Педагогика, психология. 2019;2(37):57-65.
2. Борисов Д.Н. Структура и динамика заболеваемости военнослужащих Вооруженных Сил Российской Федерации в 2004-2013 г.г /Русев И.Т., Коровин Р.А., Барановский А.М //WWW.MEDLINE.RU. 2015 й.
3. Гунтер Деш Медико-санитарная служба Бундесвера / Деш.Г. //Военно-медицинский журнал. 1990;11:64-67.
4. Голота А.С. Медицинская служба вооруженных сил Полши / А.С. Голота, А.Б. Крассий, Т.В. Морвикова, С.В. Петров, Е.А. Солдатов, Р.А. Шалахин //Военно-медицинский журнал. 2016;337(6):43-47.
5. Грубеляс В.В. Влияние медико-географических условий территории Республики Беларус на медицинское обеспечение воинских частей и подразделений / В.В. Грубеляс, С. А. Фомин //Сборник научных статей военной академии Республики Беларус. 2018;34:39-49.
6. Евдокимов В.И. Показатели психических расстройств офицеров Вооруженных сил Республики Беларус (2003–2020 гг.) / В.И. Евдокимов., Д.А. Чернов //Вестник психотерапии. 2021;80(85):7-24.
7. Кетрин Л. Кан. Military Health Sistem Review. 2019;8:3-4.
8. Кратц В.А. Особенности медицинского обеспечения вооруженных сил США / В.А. Кратц, Е.А. Солдатов, Е.Е. Редкин //Известия Российской военно-медицинской Академии: 2019;4:43-49.
9. Кувшинов К.Э. Неинфекционная заболеваемост в Вооруженных Силах / К.Э.Кувшинов, С.В.Земляков, Р.Г.Макиев, А.Г.Пастухов //Военно-медицинский журнал. 2016;337:4-10.
10. Кривошеков, С.Г. Системные механизмы адаптации и компенсации / С.Г. Кривошеков, В.П. Леутин, В.Э. Диверт //Бюл. СО РАМН. 2004;2:148-153.
11. Литвиненко И.В. Многоуровневые поражения периферической нервной системы в клинической практике военной и морской медицины / И.В. Литвиненко, С.А. Живолупов, А.Р. Булатов, Е.Э. Кузина, Е.А. Провоторов //Морская медицина. 2018;4(3):26-35.
12. Мухаметжанов А.М. Оценка заболеваемости военнослужащих срочной службы / А.М. Мухаметжанов //Фундаментальные исследования. 2012;8:111-115.
13. Maguen S. Killing and latent classes of PTSD symptoms in Iraq and Afghanistan veterans / S. Maguen [et al.] // Journal of affective disorders. 2013;145(3):344-348.
14. Омаров Г.Ж. Анализ частоты переломов напряжения болшеберцовой кости среди военнослужащих / Г.Ж. Омаров, А.А. Палтушев, С.А. Панов В.И. Ионцев, В.Я. Апчел //Вестник Российской военно -медицинской академии. 2020;2(70):34-38.
15. Протченков М.А. Основные направления совершенствования организации хирургической работы в войсковом звене медицинской службы: тиб. фанлари номзоди илмий даражасига ном. диссерт. / М.А.Протченков. -С.Петербург., 2003;15.
16. Сивашенко П.П. Основные показатели состояния здоровья военнослужащих-женщев в 2008-2013 г.г. // Иванов В.В., Борисов Д.Н., Борановский А.М. //Вестник Российской военно-медицинской академии: 2015;3(51):166-172.
17. Сабиров Д.Р. Чет давлатларда харбий хизматчиларнинг психологик саломатлиги муаммо сифатида / Сабиров Д.Р. //Ўзбекистон Республикаси Қуролли Қучлари Академияси хабарлари. 2015;1(16):35-39.
18. Суин П.А. Состояние здоровья и пути совершенствования медицинского обеспечения военнослужащих авиационных частей Внутренних войск МВД России: тиб. фан. номз. дисс : 14.00.33 / П.А. Суин. -Нижный Новгород., 2007;205.
19. Талипов Х.Р. Патологическая функциональная перестройка костей нижней конечности у военнослужащих (усталостные переломы) / Х.Р. Талипов, Р.Р. Исаков // Тошкент тиббиёт академияси нузуридаги Ҳарбий-тиббиёт факултети ташкил топганининг икки йиллигига бағишланган иккинчи анъанавий илмий-амалий анжуманнинг мақолалар тўплами,

- Тошкент, 2014 йил 31 май / ТТА хузуридаги НТФ; тахрир.: Д.Р. Сабилов [ва б.]. -ТТА хузуридаги НТФ, 2014;147-149.
20. Трунов Я.Н. Эпидемиологическая оценка заболеваемости военнослужащих по призыву в условиях экстремальных физических нагрузок / Я.Н. Трунов., В.Н. Болехан // Мед.-биол. и соц.-психол. пробл. безопасности в чрезв. ситуациях. 2017;4:41-50.
  21. Шамрей В.К. Показатели психического здоровья военнослужащих, проходящих военную службу по призыву в 2003–2016 гг. / Шамрей В.К., Евдокимов В.И., Сивашенко П.П. //Воен.-мед. журн. 2017;338(11):10-18.
  22. Яценко К.О. Состояние психического здоровья военнослужащих с эмоционально неустойчивым расстройством личности. / К.О. Яценко, М.М. Аксенов // Сибирский вестник психиатрии и наркологии. 2014;3(84):27-30.
  23. Horesh D. The clinical picture of late-onset PTSD: A 20-year longitudinal study of Israeli war veterans / D. Horesh [et al.] // Psychiatry research. 2013;208(3):265-273.
  24. Azizova F.L., Ermatov N.J., Kutliev J.A. Hygienic recommendations for organizing a healthy diet to increase the physical activity of military athletes //Art of Medicine. International Medical Scientific Journal. 2022;2(1).
  25. Kutliev J. A., Rustamov A. A., Khushvaktov A. S. Hygienic Analysis Of Microclimate Indicators At Polymer Production Enterprises //Texas Journal of Medical Science. 2024;29:81-84.
  26. Kutliev J. A. et al. Hygienic Assessment Of The Class Of Working Conditions According To The Chemical Factor In The Production Of Polyethylene Products //Texas Journal of Medical Science. 2024;30:66-70.
  27. Jamshid A. Kutliev, Uktamjon R. Davronov, Abbas A. Rustamov, Akram S. Khushvaktov, Dilafruz, F. Aripova and Shuxrat SH. Sodikov 2024. Hygienic analysis of the daily routine of cadets of higher military educational institutions. //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. 2024;3(4):259-260.
  28. Jamshid A. Kutliev, Bobokalon H. Xalimov, Abbas A. Rustamov and Dilafruz, F. Aripova 2024. Modern approaches to service conditions factors affecting the health of military servicemen and prevention problems. //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. (Mar. 2024), 2(3):104-109.
  29. Jamshid A Kutliev, Abbas A Rustamov, Akram S Khushvaktov, & Dilafruz, F Aripova. (2024). Hygienic Assessment Of The Class Of Working Conditions According To The Chemical Factor In The Production Of Polyethylene Products. //Texas Journal of Medical Science, 2024;30:66-70. <https://doi.org/10.62480/tjms.2024.vol30.pp66-70>.
  30. Кутлиев Жамшид Амонбайевич, Тургунбоев Достонбек Давлатбек Угли Перспективы цифровизации военной медицины в Узбекистане // SAI. 2023. №Special Issue 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-tsifrovizatsii-voennoy-meditsiny-v-uzbekistane> (дата обращения: 22.04.2024).

**Qabul qilingan sana 20.04.2024**